

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

DORIVOR LIMONO‘T (*MELISSA OFFICINALIS*) O‘SIMLIGINING AYRIM BIOEKALOGIK XUSUSIYATLARI

Rahimov Rustam Ulug‘berdi o‘gliiv

Termiz davlat pedagogika instituti, Biologiya ta‘lim yo‘nalishi 3- bosqich talabasi.

Gmail: rustamrahimov7777777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada limono‘tning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish jaryonida olib borilgan ilmiy izlanishlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Limono‘t, dorivor preparatlar, O‘rta Osiyo, Qrim, Kavkaz, Rossiya, Yevropa O‘zbekiston, ko‘p yillik o‘t, efir moyi, vitamin C, manzarali o‘simlik, xalq tabobati.

Аннотация. В данной статье приводятся научные исследования, проведенные при изучении биоэкологических свойств лемонграсса.

Ключевые слова: Мелисса лекарственная, препараты, Средняя Азия, Крым, Кавказ, Европа, Россия, Узбекистан, многолетнее растение, эфирное масло, витамин С, декоративное растение, народная медицина.

Annotation. In this article, scientific research conducted during the study of bioecological properties of lemongrass is cited.

Key words: Lemon balm, medicinal preparation, Central Asia, Crimea, Caucasus, European, Russia, Uzbekistan, perennial plant, essential oil, vitamin C, decorative plants, folk medicine.

Limono‘t - Yalpizdoshlar (Limiaceae) oilasiga mansub bo‘lib, bo‘yi 30-100 sm ga yetadigan, limon hidi kelib turadigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik hisoblanadi. Poyasi bitta yoki bir nechta, undagi yon shoxlar qarama-qarshi joylashgan. Barglari tuxumsimon yoki ellipssimon, och yashil rangli, bir oz o‘tkir uchli, sertuk (ustki tomonidan), arrasimon qirrali bo‘lib, qisqa bandi bilan poya va shoxlarida qarama-qarshi o‘rnashgan. Gullari mayda, oq, ba‘zan bir oz pushti rangli, to‘pgullarda yig‘iladi, tukli, ikki labli gullari gul bandi bilan barg qo‘ltig‘ida joylashib, to‘p gulni hosil qiladi. Qarama-qarshi joylashgan barglarning qo‘ltiqlarida bir nechta gullari bo‘ladi. Butun o‘simlik yumshoq tuklar bilan qoplangan. Mevasi - 4 ta yong‘oqcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Mevasi iyul-avgust oylarida yetiladi.

Termiz sharoitida iyun oyidan boshlab toki oktyabr oyigacha gullaydi. O‘simlik faqat gullashdan oldin xushbo‘y limon hidini chiqaradi va gullashdan keyin hid zaiflashadi va hatto yoqimsiz bo‘ladi. *Melissa officinalis* o‘rmonlarning chekkasida, o‘rmon jarlarida, soyali butalar orasida, ochiq o‘rmonlarda, toshloq va o‘tloqli joylarda o‘sadi. O‘simlik o‘rmon o‘tloqlarida, daryo bo‘ylarida va yo‘l chetlarida ko‘p uchraydi. U namligi yuqori bo‘lgan loy va qumloq tuproqlarni afzal ko‘radi. *Melissa* tepaliklarda yaxshi o‘sadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Melissa qisman soyani afzal ko‘radi. Melissa - yuqori va past havo haroratiga osongina chiday oladigan o‘simlik. Shu bilan birga, Melissa inson tomonidan turli ob‘ektlarda: botanika bog‘larida, asalarichilik xo‘jaliklarida va tadqiqot stantsiyalarida etishtiriladi. Mevasi kosachabarglar ichida joylashib, ancha yirik, yong‘oqsimon, 1000 dona urug‘ining o‘rtacha og‘irligi 0.65 g. Urug‘lari 2-3 yil



davomida yashovchanligini saqlab qoladi. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Mevalari avgust-sentyabr oylarida pishib yetiladi. Melissa qimmatbaho asal shirali o‘simlikdir, gullash davrida u ko‘plab nektar beradi.

Limono‘tning shifobaxsh ta’siri uning efir moyi bilan bog‘liq. Zamonaviy izlanishlar natijasida limono‘tning barglari efir moylarida 65 tagacha terpenoidlar aniqlangan. Yer ustki qismi tarkibida 0,01-0,33% efir moyi, C vitamini, karotin, fenilkarbon kislotalar, triterpenlar, flavonoid (luteolin-7-glikozid va boshqalar), 5-10% oshlovchi va boshqa moddalar mavjud. Urug‘ida 20-27% yog‘ bor. Limono‘tning efir moyi geraniol, linalool, nerol, farnezol va ularni sirka kislotasi bilan birikmasi, limonen, pulegol, geranial, neral va boshqa terpenlardan tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djumayev Kh.K., Tkachenko K.G., Zenkevich I.G. Компонентный состав эфирного масла из надземной части *Zeravschania regeliana* Korov. Химия природных соединений. 2021 №3.
2. Xojimatov K. X., Xojimatov O. K "O'simliklar hom-ashyosi resurslari " O'quv qo'llanma. Guliston 2007.- 54b.
3. Xamidov A., Nabiyev M., Odilov T. "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi". Toshkent "O'qituvchi" 1987. -328b
4. Xamidov G'.H., Mahsudova R.S., Mahmudov M.H "O'zbekiston o'simliklari" Toshkent "O'qituvchi". 1992 -244b
5. X.X Xolmatov dorivor o‘simliklar (116-117 bet)
6. Dzhumaev Kh.K., Tkachenko K.G., Zenkevich I.G., Tsibul'skaya I.A. Essential oils of *Salvia sclarea* L. Produced from Plants Grovvn in Soutern Uzbekistan. “ Journal of Essential oil Re